

ARAB MILLIY MADANIY MARKAZI

Qodirova Mamlakat, Mo‘minovna

Qarshi davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya:

Ushbu maqolda o‘zbek xalqining bag‘rikengligi, shu boisdan arab xalqining vatanda qadrlanayotgani haqida aytib o‘tiladi. Qashqadaryo viloyatida tashkil etilgan Arab milliy madaniy markazi, uning imkoniyatlari, vazifalari, o‘z oldiga qo‘ygan rejalari to‘g‘risida fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek, arab tili va yozuvi, Jeynov shaharchasi, Amir Temur, xatabak, hamjihatlik, hujjatli filmlar.

O‘zbek xalqi azal-azaldan umumbashariy qadriyatlar ulug‘lanagan, xalqonalik, milliylik qadrlanadigan, diniy bag‘rikenglik, o‘zaro hamjihatlik e‘zozlanadigan xalq sanaladi. Tarix zarvaraqlarida bu kabi insoniylik, mehmondo‘stlik, bag‘rikenglik xalqimiz qon-qoniga singib ketganini bilamiz. 150 dan ortiq millat, elat vakillari bugun O‘zbekiston bag‘rida tinch-totuvlikda, bir g‘oya, bir osmon ostida yashab kelmoqda. Shunday millatlardan biri arablar bo‘lib, Qashqadaryo vohasida ancha yillardan beri umrguzaronlik qilib yashamoqda. Diniy bag‘rikenglikning yuksak nishonasi sifatida 1993-yilda Qashqadaryoda Arab milliy madaniy markazi tashkil etilgan bo‘lib, bu markaz hozirgi kungacha faoliyat yuritib kelmoqda. Bu markazning asl asosiy maqsadi- arab milliy urf-odatlarini, an‘analarini tiklash, arab tili va yozuvini saqlash, xalq og‘zaki ijodini, o‘z tarixini qadimiy qo‘shiq, terma, raqslarini ijro etuvchi etno-badiiy dasta tashkil etish, millatlararo bag‘rikenglikni barqarorlashtirishdan iborat bo‘lib, bu maqsad zahirida xalq yo‘qolib ketmasligi nazarda tutiladi. Qarshi davlat universiteti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Tarix instituti, Qarshi shahar Pedagogika kolleji tadqiqotchilari tashkil etilgan bu markaz yordami bilan bir necha yillardan beri o‘zbekistonlik arablar tarixi, madaniyati, san‘ati bo‘yicha ilmiy izlanishlar, amaliy tadbirlar olib bormoqdalar. Arab milliy madaniy markazi Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan, birga yashayotgan rus, tatar, boshqird, turkman, tojik kabi milliy madaniy markazlar bilan birgalikda, o‘zaro bir g‘oyalar ostida milliy madaniyatlarning o‘zaro boyitilishi va xalqlar do‘stligini mustahkamlashga qaratilgan madaniy –ma‘rifiy tadbirlar, xayriya kechalari, bayramlarni o‘tkazib kelmoqda.

Yurtimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham turli millat va elat vakillari o‘zaro tinch, osuda, hamjihatlikda yashab kelmoqda. Arablarning ham huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ta‘lim olish jarayonlari, madaniyat va an‘analarini saqlash hamda rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar

yaratib berilgan. O`zbekistonning davlat boshqaruvi, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar, siyosiy qatlam, madaniy-ma`rifiy ishlarda keng va erkin tarzda ishtirok etishmoqda.

Arab milliy madaniy markaz faoliyatini tashkil etish, zamon talablariga muvofiqlashtirish, unga amaliy va uslubiy yordam ko`rsatishga alohida e`tibor qaratilyapti. Yurtimizda nishonlanadigan barcha bayramlar, xalq sayllari, xususan, Navro`z bayrami, Mustaqillik bayrami, Ramazon hayit kabi bayramlarda faol ishtirok etishadi. Arab milliy madaniy markazi “Al-Arabiya” deb nomlangan markaz qoshida milliy etnik guruh tashkil etgan bo`lib, Bu guruh o`z chiqishlari orqali o`z urf-u odatlarini namoyon etishib, o`zbek xalqi bilan millatlararo totuvlikda yashab kelmoqda.

Qashqadaryo vohasining janubi g`arbida Qarshi shahridan uncha uzoq bo`lmagan joyda Jeynov shaharchasi bor. Bu shaharchada arablar yashab kelishmoqda. Tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, Jeynov qishlog`i oltita mavzega bo`lingan: Xarruk, Bavor, Avon, Andxoy, Chuqurko`l va Kattapay. Ulardan faqat uchasi – Avon, Xarruk va Bavorda aholi arab tilida so`zlashadi. Xarruk va Bavor aholisi ajdodlarining Qarshi tumanida paydo bo`lishini VII asr bilan bog`laydilar. Avon aholisining esa bu borada qarashlari ikki xil: ba`zilari Xarruk va Bavordagi qo`shnilarining fikriga qo`shilsa, boshqalari o`z ota-bobolarining Qashqadaryo o`lkasiga ko`chirilishini Amir Temur nomi bilan bog`lashadi.

Rivoyatlarda Qashqadaryo arablarining ajdodlari bu hududga hijriy birinchi asrda ko`chib kelganlari haqidagi fakt qiziqarli, albatta. Temur bilan bog`liq ko`plab afsonalar va ularning ta`siriga qaramasdan, bu taxmin ushbu rivoyatlar qatoridan o`z o`rnini egalladi va hozirga qadar yetib keldi. Bu maskanlarda arab xalqiga xos urf-u odatlar, an`analar sof holatda saqlanib kelmoqda. Masalan, arab ayollari kiyadigan gizzi (ayollar bosh kiyimi), xatabak (taqinchoq), buxnak (bezak turi), burunga taqiladigan natti(baldoq) kabi zeb-u ziynat buyumlari faqat arablarda taqiladi, boshqa millat vakillarida ishlatilmaydi. Arab milliy madaniy markazi o`z madaniyatlarining qadriyatlarining yo`qolib ketmasligi uchun tayanch markaz hisoblanadi. Bu markaz 1993 –yilda O`zbekiston Qahramoni Murodullo Saidov tashabbusi bilan tashkil topgan bo`lib, Respublikada arablar uchun yagona markaz sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu inson rahbarligida ancha keng ko`lamli, ko`zga ko`rinarli ishlar tashkil etildi. Murodulla Saidov yozuvchi Poyon Ravshanov bilan hamkorlikda “Jeynov tarixi” monografiyasini chop etgan. Arab davlatlari bilan o`zaro yaqinlik ham o`rnatildi, arablar tarixi, bugungi hayoti, ularning san`ati, madaniyati, tili haqida kitoblar chop etildi, har xil teleko`rsatuvlar ekranlarga namoyish etildi, filmlar yaratildi. Misol sifatida bu markaz tomonidan “O`zbekfilm “ studiyasi bilan hamkorlikda “Asrlar qo`ynida”, “Jeynovliklar”, “O`zbekiston arablari” kabi mahalliy arablar haqida hikoya qiluvchi bir nechta hujjatli filmlar suratga olindi. Bu filmlarda arablarning kiyinish madaniyati, so`zlashuv uslubi, tili, nutqiy imkoniyatlari, kitoblari, odamlarining o`ziga xos dunyoqarashi haqida keng ko`lamda aytib o`tilgan. Bu esa O`zbek xalqining saxovatpesha, bag`rikeng xalq ekanligini yorqin isbotidir.

Bugungi kunda bu markaz ta'sirida o'zbeklar ham arab tiliga va yozuviga katta qiziqish bilan qarashmoqda Buning isboti sifatida Qarshi davlat universitetida arab tili alohida fan sifatida talabalarga o'tiladi. Bu bilan arablar o'z ona tillarining umrboqiyiligini ,yashab kelayotganligini anglab yetishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Arab milliy madaniy markazi arablar uchun keng imkoniyatlar eshigi hisoblanadi.O'z xalqlarining ming yillar davomida yashab kelishlari uchun,madaniyati ,tarixi, san`ati ,tili,yozuvi saqlanib qolishi uchun yetuk kuch bo`lib xizmat qiladi.Bunda esa O`zbek xalqini o`z yordamini ayamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Tbilisining Erkin universiteti qoshidagi arab davlatlari va islom dunyosini o'rganish Markazi direktori va ushbu universitetning sobiq rektori Guram Chikov
- 2.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Khudayar Khan's rule of kokand Khanate." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 182-185.
- 3.Mamlakat, Qodirova, and Mannonov Yorqin. "BOZOR SAMADOV-XALQ QAHRAMONI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 696-698.
- 4.Safarov, Akmal, and Mamlakat Qodirova. "PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO 'JALIGIDAGI O 'RNI (QASHQADARYO MISOLIDA)." E Conference Zone. 2022.
- 5.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Issues of the Ethnogenesis of the Uzbek People in Ethnographic Studies of Uzbekistan During the Years of Independence." Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 116-118.
- 6.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Development of community livestock during the years of independence on the example of kashkadare and surkhandare." Academicia Globe: Inderscience Research 3.04 (2022): 455-457
- 7.Mannonov, Yorqin, and Mamlakat Qodirova. "LAG'MON QISHLOG'I TARIXI." Scientific progress 3.3 (2022): 876-880.
- 8.Davronbek, Normurodov, and Qodirova Mamlakat. "Abu nasr inb Muhammad Farobiy." Ta'lim fidoyilari 5.9 (2022): 496-499.
- 9.Muminovna, Kodirova Country. "HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 967-969.
- 10.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Why mahatma Gandhi changed the world forever." Academicia Globe: Inderscience Research 3.06 (2022): 361-367.